

## O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANISHIDA MILLIY QADRIYATLARNING O'RNI

*Meliboyeva Ma'mura O'rinboyevna*

*Jizzax viloyati SAMBHRAM UNIVERSITETI o'qituvchisi*

[meliboyevamamura8@gmail.com](mailto:meliboyevamamura8@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishda milliy qadriyatlarning o'rni tahlil qilingan. Xususan, Samarqand, Xiva va Jizzax viloyatlarining betakror madaniy merosi, tarixiy obidalar, xalqona urf-odatlar va hunarmandchiligi orqali turizmning barqaror rivojlanishi yoritib berilgan. Maqolada milliy qadriyatlarni turizm bilan uyg'unlashtirish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlash, milliy merosni asrab-avaylash va uni kelajak avlodlarga yetkazish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, statistik ma'lumotlar va amaliy misollar asosida turizm infratuzilmasida amalga oshirilayotgan islohotlar ham ko'rsatib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Turizm, milliy qadriyatlar, Samarqand, Xiva, Jizzax, madaniy meros, iqtisodiy barqarorlik, hunarmandchilik, ekoturizm, turizm infratuzilmasi.

### Kirish

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, ulardan iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan turizmga foydalanish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaraldi. Xususan, Samarqand, Xiva va Jizzax viloyatlari o'zining betakror madaniy merosi, xalqona qadriyatlari va boy tarixiy obidalar bilan dunyo bo'ylab sayyohlarni jalb etib kelmoqda. Mazkur hududlarda turizm sohasini rivojlantirish milliy qadriyatlarni saqlash, ularga yangi mazmun berish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynamoqda. Shu o'rinda, Turizm infratuzilmasi va sanoati turizmga qo'shni tarmoqlarni o'ziga yanada ko'proq tortib, ko'plab kishilarni ish bilan ta'minlanayotganligi e'tirofga loyiq. Turizm sohasiga ko'proq ishechilar jalb qilinmoqda, natijada ko'p sonli ish joylari paydo bo'lishiga olib kelmoqda, bu esa juda muhim masala bo'lib, jamiyatga foydali bo'lgan hollar ichida birinchi o'rinda turadi.

Turizm davlatlarning ijtimoiy, madaniy va ta'lim sohalariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Xalqaro aloqalarga hamda alohida shaxslar va butun jamiyatning orzu-umidlarini hurmat qilish va adolatga asoslangan tinchlikparvarlik doirasida, turizm insonlarning bir-birini o'rganishi va tushunishining ijobiy va doimiy omili, shuningdek, xalqlar o'rtasidagi hurmat va ishonchning yanada yuqori darajasiga erishishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Zamonaviy turizm mehnat ahliga haq to'lanadigan yillik ta'til berilishini nazarda tutuvchi ijtimoiy siyosatning mahsuli sifatida yuzaga keldi, bu esa ayni paytda dam olishga bo'lgan huquqning e'tirofi hamdir.

Turizm ijtimoiy tenglik, kishilar va xalqlar o'rtasidagi hamjihatlik va shaxs kamolotining omiliga aylandi. Uning madaniy va ma'naviy mazmun-mohiyati ulkandir. Aynan turizm inson ongi erishgan yutuqlar haqida ma'lumot olish va ular bilan tanishish vositasi bo'lib, xalqlarning tarixiy va madaniy qadriyatlaridan bahramand bo'lish imkonini beradi. Arnalda turizmning ma'naviy mohiyati iqtisodiy va moddiy mezonlardan ustun bo'lishi va inson shaxsining har tomonlama uyg'un kamol topishiga yordam berishi, ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi,

turmush tarzi va hayotini belgilashida teng huquqni ta'minlashi lozim. Bu jarayonni esa uning qadri va shaxsini hurmat qilish, xalqlaming o'ziga xos madaniyati va axloqiy qadriyatlarini tan olish, - deb bilish darkor. Shunday qilib, tarixiy, madaniy va diniy qadamjolarni har qanday vaziyatlarda, ayniqsa, ziddiyatlar vujudga kelganda himoya qilish davlatlar va jahon hamjamiyatining eng muhim vazifalaridan biri bo'lmog'i lozim.<sup>1</sup>

Jumladan, O'zbekistonga eng ko'p turistlar tashrif buyuruvchi hududlar sifatida Samarqand, Xiva va Jizzax viloyatlarini aytishimiz mumkin. Ushbu viloyatlarda sayyohlikni rivojlantirish jarayonida milliy urf-odatlar, hunarmandchilik mahsulotlari, xalq og'zaki ijodi, taom madaniyati va tarixiy obidalar muhim o'rin tutadi. Jumladan, Samarqanddagi Registon majmuasi, Ulug'bek rasadxonasi, Bibixonim masjidi xalqimizning o'tmishdan meros qolgan madaniy boyligidir. Xivada esa Ichan qal'a tarixiy majmuasi UNESCO Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan bo'lib, bu maskan nafaqat me'morchilik, balki milliy qadriyatlarni dunyo miqyosida targ'ib etuvchi obyekt sifatida xizmat qiladi. Jizzax viloyati esa o'zining tabiiy go'zalliklari, qadimiy dehqonchilik an'analari va mahalliy hunarmandchilik sohalari bilan ajralib turadi.<sup>2</sup>

Bugungi kunda turizm infratuzilmasini rivojlantirishda milliy qadriyatlardan foydalanish orqali yangi loyihalar amalga oshirilmoqda. Samarqand shahrida xalqaro anjumanlar va festivallar muntazam o'tkazilib, milliy raqslar, kiyimlar va an'anaviy ovqatlar orqali sayyohlarda katta qiziqish uyg'otilmoqda. Xiva shahrida 'Ipak va ziravorlar' festivali xalqaro miqyosda e'tirof etilgan bo'lsa, Jizzaxda ekoturizm yo'nalishida qator yangi maskanlar tashkil etildi.

1-jadval.


Samarqand, Xiva va Jizzax viloyatlariga tashrif buyurgan turistlar soni (2021–2024)

| Yil  | Samarqand | Xiva    | Jizzax |
|------|-----------|---------|--------|
| 2021 | 1200000   | 800000  | 200000 |
| 2022 | 1500000   | 950000  | 250000 |
| 2023 | 1800000   | 1200000 | 300000 |
| 2024 | 2200000   | 1400000 | 400000 |

**1-diagramma. Turistlar sonini o'sib borishi Samarqand , Xiva va Jizzax viloyatlari kesimida**

1 Turizm asoslari: bakalavriat ta'lim YO'nalishlari talabalari uchun o'quv qo'llanma/ M.A Mirzayev, M.T. Aliyeva; mas'ul muharrir ASH. Bekmurodov; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2011. - 288 b.


2 UNWTO (2023, 2025). World Tourism Barometer & Tourism Highlights. Madrid: United Nations World Tourism Organization.



\*Stat.uz - turizm statistikasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Shu bilan birga, rivojlanib kelayotgan tarmoqlar qatori turizm ham keng global tarmoq kabi o'z funksiyalarini bajarib kelmoqda. Uning rivojlanishi uchun yangi kadrlar va yosh avlod shakillantirilmoqda. Shuning natijasida turizm ko'rsatkichlari yildan-yilga o'smoqda.

2-diagramma. Turizm sohasidan olingan daromad (mlrd. so'm)



\*Ma'lumotlar [uzbektourism.uz](http://uzbektourism.uz) / [tourismcommittee.uz](http://tourismcommittee.uz) saytidan olindi.

## Xulosa

O'zbekistonning turizm sohasini rivojlantirishda milliy qadriyatlar eng muhim omillardan biri bo'lib qolmoqda. Samarqand, Xiva va Jizzax viloyatlarida amalga oshirilayotgan ishlar nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlamoqda, balki xalqimizning madaniy merosini asrab-avaylash va kelajak avlodlarga yetkazishda ham katta rol o'ynamoqda. Milliy qadriyatlarni turizm bilan uyg'unlashtirish orqali mamlakatimizda barqaror va raqobatbardosh turizm sanoatini shakllantirish mumkin.

Binobarin, Turizm - aksariyat davlatlar iqtisodiyotining muhim hamda ustuvor tarkibiy qismi bo'lib, mahalliy aholining ish bilan bandligi, mehmonxonalar, restoran va tomoshagohlarning to'liq ishlashi, xorij valutasining mamlakatga kirib kelishini ta'minlaydi. Shu bois, ko'plab mamlakatlar turizm sohasiga katta e'tibor bilan qaraydilar. Masalan, Fransiyada hukumat yig'ilishlari vaqtida turizm vaziri bosh vazirning o'ng tomonidan joy oladi. Fransiyaning Yevropadagi birinchi raqamli turistik hudud ekanligi va Parij shahrini turizm hisobiga yashab, "Turistik Makka" - deb nom olishi boshqa mamlakatlar havas qilsa arzigulik holdir. Meksika prezidenti esa yirik xalqaro turistik ko'rgazmalarni shaxsan o'zi ochib beradi. Bunday misollarni yana ko'plab davom ettirish mumkin.

Turizmning ichki iqtisodiy tabiati shuni ko'zda tutadiki, turist albatta o'z pullarini mazkur davlatda qoldirishi kerak. Turizm mahalliy turistik resurslarni ekspluatatsiya qilishga va buning evaziga davlatning foyda olishiga asoslanadi. Shuning uchun turist o'zi kelgan mamlakatdagi har qanday manbaadan foyda olishga haqli emas. Ishchi kuchi oqimining cheklanishi muammosi davlat immigratsiya (kirib keluvchilar) xizmatlarini tashvishga solgani bois odatda, faqat keskin ishchi kuchi yetishmasligi, mahalliy ishchi resurslarining taqchilligi va muayyan og'ir ishlarni (masalan, o'ta og'ir, zararli, iflos va shu kabi) bajara oladigan kerakli malakali mutaxassislar talab bo'lgandagina chetdan ishchilarni yollashga ruxsat beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Turizm asoslari: bakalavriat ta'lim YO'nalishlari talabalari uchun o'quv qo'llanma/ M.A Mirzayev, M.T. Aliyeva; mas'ul muharrir ASh. Bekmurodov; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2011. - 288 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611- son Farmoniga 1-ilova 2019–2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasi.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining turizmni rivojlantirishga oid 2019– 2025-yillar strategik hujjatlari (Farmon va qarorlar).
4. UNWTO (2023, 2025). World Tourism Barometer & Tourism Highlights. Madrid: United Nations World Tourism Organization.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611- son Farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi turizm va madaniy meros vazirligi ma'lumotlari.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-yanvardagi "2022– 2026-yillarda turizmni rivojlantirish strategiyasi" PQ-60-sonli qarori.
8. Stat.uz - Turizm statistikasi.
9. [uzbektourism.uz](http://uzbektourism.uz) / [tourismcommittee.uz](http://tourismcommittee.uz)
10. <https://infocom.uz/magazine-article-detail/921>